

18-dars. O'rganilganlarni takrorlash



1. **Qonuniyatni** aniqlang va har bir ketma-ketlikdagi keyingi sonni ayting.

1, 12, 123, 1 234, 12 345, ?

9, 90, 908, 9080, 90 807, ?

1, 21, 123, 4 321, 12 345, ?

13, 35, 57, 79, 911, 1 113, ?



2. **Sonlarni** raqamlar bilan yozing va ularni **xona qo'shiluvchilari yig'indisi** ko'rinishida ifodalang:

- a) olti ming ellik yetti;
- b) sakson bir ming bir yuz o'ttiz;
- d) uch ming yetti;
- e) yigirma ming.



3. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Faqat **to'rt xonali** qiymatlarni **o'sish** tartibida yozing va qadimda Amudaryo qanday atalganligini aniqlang.

M $236 + 325$

S $1\ 168 + 1\ 790$

E $361 + 327$

I $4\ 920 + 5\ 157$

K $896 + 973$

O $652 + 1\ 194$



4. Bochka ichiga 2 chelak suv sig'adi. Har bir chelakda 5 litr suv bor. Shunday 7 ta bochkada necha litr suv bo'ladi?




5. **Ifodalar** tuzing va ularning qiymatini hisoblang.

- a) Amudaryoning uzunligi 1 415 kilometr, Sirdaryoning uzunligi esa undan 797 kilometr uzun. Sirdaryoning uzunligi qancha?
- b) Birinchi dalani sug'orish uchun 3 178 litr, ikkinchi dalani sug'orish uchun esa birinchi dalaga nisbatan 700 litr ko'p suv ishlatildi. Ikkala dalani sug'orish uchun jami necha litr suv ishlatilgan?
- d) Chelakning hajmi 8 litr. Shunday 9 ta chelakka necha litr suv sig'adi?




6. Daryoga charxpalak o'rnatildi. Uning ikki tomoniga har birining uzunligi 3 metrdan bo'lgan 6 ta taxta qoqildi. Jami necha metr taxta ishlatildi?



7. **Diagrammani** o'rganing.

- a) Qaysi oyda yog'ingarchilik eng kam bo'lgan?
b) Qaysi oyda yog'ingarchilik eng ko'p bo'lgan?
d) Shu oylar davomida jami necha millimetr yog'ingarchilik yog'gan?



8. Jasur, Sardor va Akmal keng daryoning narigi qirg'og'iga o'tishlari kerak. Qirg'oqda 65 kg gacha yukni ko'tara oladigan kichik sol bor. Jasur 30 kg, Akmal 32 kg, Sardor esa 36 kg vaznga ega. Ular shu sol yordamida qanday qilib narigi qirg'oqqa o'tib olishlari mumkin?



9. Baliq yetishtirish uchun mo'ljallangan hovuzga avval 7 629 litr, keyin 645 litr, so'ng yana 4 100 litr suv quyildi. Hovuzda jami necha litr suv bo'ldi?

10. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Javoblarga mos harflarni berilgan tartibda joylashtiring va O'zbekistondagi daryolardan birining nomini toping.

O $278 + 194 + 222$

N $116 + 167 + 333$

E $800 - 192 - 108$

R $453 - (109 + 153)$

K $(375 + 179) - 175$

I $(642 + 118) - 18$

616

694

191

742

616

